



O'LCHOVLI OLTIN QUYMALAR BO'YICHA SHARH

2025-yil yakuni bo'yicha

O'lchovli oltin quymalar bo'yicha sharh

Kirish

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan geosiyosiy keskinliklar, global iqtisodiy noaniqliklar va moliya bozorlaridagi yuqori tebranuvchanlik sharoitida investorlar va aholi tomonidan xavfsiz aktivlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Bunday sharoitda oltin an'anaviy tarzda xavfsiz aktiv sifatida qaralib, moliyaviy aktivlarini diversifikatsiya qilish va inflyatsion bosimlarga qarshi himoya vositalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda oltinga investitsiya qilishning turli shakllari mavjud. Jumladan, o'lchovli oltin quymalar va tangalar, metall hisobvaraqlar hamda oltin bilan ta'minlangan birjaviy instrumentlar orqali oltinga sarmoya kiritish keng tarqalgan.

Xususan, Germaniya, Shveysariya, Avstriya, Turkiya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa bir qator mamlakatlarida aholi tomonidan o'lchovli oltin quymalarni xarid qilish va jamg'arish amaliyoti keng qo'llanib kelinmoqda.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda jahon bozorida oltinga bo'lgan investitsion talab ham yuqori darajada shakllanmoqda. Xususan, Jahon oltin kengashi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jahonda o'lchovli quymalar va tangalarga bo'lgan talab **862,8** tonnani tashkil qilib, avvalgi yilga nisbatan 10 foizga oshgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich **1 068** tonnaga yetib, 24 foizlik o'sish qayd etgan.

Mazkur global tendensiyalar fonida mamlakatimizda ham aholining investitsiya va jamg'arish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek ichki qimmatbaho metallar bozorini rivojlantirish maqsadida 2020-yildan boshlab o'lchovli oltin quymalarini banklar orqali sotish va qaytarib sotib olish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida mazkur instrument aholi uchun qo'shimcha jamg'arish va investitsiya imkoniyatlarini yaratib, banklar orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Xususan, so'nggi ikki yilda jahon bozorida oltin narxining tarixiy maksimal darajalarga yaqinlashishi sharoitida aholi tomonidan o'lchovli oltin quymalariga bo'lgan talab ham sezilarli darajada oshdi.

Shu bilan birga, oltin foizli daromad keltirmaydigan va uning narxi xalqaro bozor kon'yunkturasiga bog'liq holda o'zgarib turuvchi aktiv hisoblanadi. Shu sababli oltin aktivlariga investitsiya kiritishda uning narxi dinamikasi va bozor omillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu sharhda mamlakatimizda o'lchovli oltin quymalari bozorining shakllanishi, banklar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar dinamikasi, aholi tomonidan mazkur instrumentga bo'lgan talab, shuningdek so'nggi yillarda oltin narxining o'zgarishi sharoitida ushbu aktivning daromadlilik tahlil qilinadi.

I bob. O'lchovli oltin quymalarning muomalaga chiqarilishi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-iyundagi 412-sonli qaroriga muvofiq muomalaga chiqarilgan o'lchovli oltin quymalarni sotish va qaytarib sotib olish tartibi belgilangan bo'lib, bugungi kunda banklar orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

Ushbu qarorga muvofiq, 2020-yil noyabr oyidan boshlab aholining investitsiya va jamg'arish imkoniyatlarini kengaytirish hamda qimmatbaho metallar bozorini rivojlantirish maqsadida Markaziy bank tomonidan **5, 10, 20** va **50** grammlik hamda 2025 yildan **100** grammlik oltindan tayyorlangan va maxsus himoya qadoqlariga ega bo'lgan o'lchovli quymalar muomalaga chiqarilmoqda (1-rasm).

1-rasm. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladigan o'lchovli oltin quymalar namunalari



O'lchovli oltin quymalar **maxsus qadoqlari** bilan himoyalangan bo'lib, ushbu maxsus himoya qadoqlari Italiyaning "CERTLINE SRL" kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan. Ular **kriptoprint**, **QR-kod** va **seriya raqam** kabi uch turdagi himoya elementlariga ega. Shuningdek, o'lchovli quyma va uning qadog'i bir xil seriya raqamiga ega bo'lib, bu ularning identifikatsiyasi hamda haqiqiylikni aniqlash imkonini beradi (2-rasm).

2-rasm. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladigan o'lchovli oltin quymalarning maxsus himoya qadoqlari namunalari

Qadog'i but holatda:



Himoya qadog'i ochilgan holatda:



Seriya raqami
Real vaqt rejimida
quymaning asilligini
tekshirish uchun **QR-kod**

Qadoq ochilganda
ko'rinuvchi **kriptoprint**

Qadoq ochilganda
rangi o'zgaruvchi
himoya membranasini

Yuqoridagi nizomga muvofiq, o'lchovli oltin quymalarni sotish va qaytarib sotib olish narxлари Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Bunda Markaziy bank ushbu amaliyotdan foyda olish maqsadini ko'zlamaydi. Narxlarni belgilashda oltinning jahon bozorida narxлари hamda operatsion xarajatlar inobatga olinadi.

Ta'kidlash joizki, o'lchovli quymalarni qayta sotib olish narxini belgilashda qo'llaniladigan maxsus chegirma miqdori qadoqlari but holatdagi hamda qadoqlari buzilgan, ya'ni amaldagi texnik talablarga javob bermaydigan quymalar uchun alohida belgilanadi.

Qadog'i buzilmagan o'lchovli oltin quymalarni qaytarib sotishda o'lchovli quyma bankka topshirilgan kunning o'zida mijoz bilan hisob-kitob amalga oshiriladi.

Agar oltin quymalarni qaytarib sotib olish jarayonida ularning qadoqlarida buzilishi yoki texnik talablarga nomuvofiqlik holatlari aniqlansa, quymalar Davlat asillik darajasini belgilash palatasiga texnik ekspertizadan o'tkazish uchun yuboriladi. Mazkur ekspertiza yetti ish kunidan oshmagan muddatda o'tkaziladi hamda mijozga uning natijalari bo'yicha bir ish kunida ma'lumot taqdim etiladi.

Ekspertiza natijasida quymaning haqiqiyligi tasdiqlangan taqdirda mijoz bilan hisob-kitob uch ish kunidan oshmagan muddatda amalga oshiriladi. Mazkur ekspertiza bilan bog'liq xarajatlar Markaziy bank tomonidan qoplanadi.

Mazkur tartib o'lchovli oltin quymalarining haqiqiyligini ta'minlash, operatsiyalarning shaffofligini oshirish hamda aholining ushbu instrumentga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.


II bob. O'lchovli oltin quymalar sotuvi tahlili

2020-yildan bugungi kunga qadar oltin quymalarni sotish va qayta sotib olish amaliyoti bosqichma-bosqich kengayishi kuzatilmoqda. Xususan, mazkur operatsiyalarni amalga oshirayotgan banklar soni **12 tadan 19 taga** hamda shoxobchalar soni esa **34 tadan 170 taga** oshdi.

2020-yil noyabr oyidan 2025-yil 30-dekabrga qadar banklar tomonidan aholiga umumiy og'irligi **1,2 tonna** bo'lgan jami **65 150** dona o'lchovli oltin quymalar sotuvi amalga oshirildi (1- va 2-grafiklar).

Mazkur davr mobaynida 5 va 10 gramm og'irlikdagi **sotilgan** oltin quymalar soni jami o'lchovli quymalar sotuvining 60 foizdan ortig'ini tashkil qildi. Bu, o'z navbatida, oltinning qimmatbaho aktiv hisoblanganligi sababli aholining nisbatan kichik hajmdagi quymalarga talabi yuqoriligini ko'rsatadi.


1-grafik. 2020–2025 yillarda banklar orqali sotilgan o'lchovli oltin quymalar soni



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


Shu bilan birga, 2020-2025-yillarda banklar tomonidan umumiy og'irligi **201 kg** bo'lgan jami **11 828** dona o'lchovli oltin quyma aholidan **qaytarib sotib olindi**. Bunda 5 va 10 gramm og'irlikdagi quymalar jami qaytarib sotib olingan quymalarning qariyb 65 foizini tashkil qildi (*3-grafik*).

2-grafik. 2020–2025 yillarda banklar orqali sotilgan o'lchovli oltin quymalar og'irligi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

3-grafik. 2020-2025-yillarda banklar tomonidan sotilgan va qaytarib sotib olingan o'lchovli oltin quymalar ulushi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


Ta'kidlash joizki, so'nggi ikki yilda o'lchovli oltin quymalarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2024-yilda ushbu quymalarga talab avvalgi yillardagi o'rtacha ko'rsatkichga (81 kg) nisbatan qariyb 3 baravar oshib, 236 kgni tashkil etdi. 2025-yilda esa ushbu ko'rsatkich 8 baravarga oshib, 661 kgga yetdi.

Shuningdek, birgina 2025-yilda banklar tomonidan aholiga sotilgan o'lchovli oltin quymalar (661 kg) 2020–2024-yillarda sotilgan quymalardan (558 kg) **18,4 foizga** (+103 kg) ortiq shakllandi.

Mos ravishda, 2025-yilda banklar tomonidan aholiga sotilgan o'lchovli oltin quymalar soni (33 939 dona) 2020–2024-yillarda sotilgan jami quymalar sonidan (31 211 dona) **8,7 foizga** ko'p bo'ldi.

Mazkur o'sish asosan 2024-2025-yillarda jahon bozorida oltin narxining tarixiy maksimum darajalarga yaqinlashgani bilan izohlanadi. Oltin narxining oshishi fonida aholining jamg'arish va investitsiya maqsadlarida o'lchovli oltin quymalariga bo'lgan talabi ham ortib bormoqda (4-grafik).

4-grafik. 2024-2025-yillarda o'lchovli oltin quymalarga talab hajmi va mos davrda o'lchovli oltin quymalarning narx dinamikasi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


III bob. O'lchovli oltin quymalar daromadliliği tahlili

2023–2025-yillarda jahon bozorida oltin narxining sezilarli darajada oshishi fonida o'lchovli oltin quymalarining daromadliliği bank depozitlari bo'yicha milliy valyuta hamda AQSh dollarida taklif etilgan o'rtacha yillik foiz stavkalariga nisbatan yuqoriroq shakllandi.

Shu bilan birga, oltin foizli daromad keltirmaydigan va narxi yuqori tebranuvchan aktiv hisoblanadi. So'nggi uch yil davomida geosiyosiy hamda makroiqtisodiy omillar ta'sirida oltin narxining keskin o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, uzoqroq muddatli davrlarda uning narxida sezilarli pasayish holatlari ham qayd etilgan.

Ta'kidlash joizki, bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalar, oltindan farqli ravishda, nisbatan barqaror darajada shakllanadi. Oltin aktivlarining daromadliligi esa ko'proq jahon bozoridagi narx dinamikasiga bog'liq bo'lib, uning kelgusidagi daromadliligi oldindan kafolatlanmaydi (5-grafik).

5-grafik. 2020-2025-yillarda o'lchovli oltin quymalar daromadliligi va pul bozorining o'rtacha stavkalari



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

O'lchovli oltin quymalar narxi London qimmatbaho metallar bozori uyushmasi (LBMA) tomonidan e'lon qilinadigan oltinning **fiksing** narxi asosida shakllanadi. Bunda, oltinning jahon bozoridagi narxiga qo'shimcha ravishda Markaziy bank tomonidan quymalarning muomalaga chiqarilishi va muomalada bo'lishi bilan bog'liq operatsion xarajatlarni qoplash uchun belgilanadigan **marja**, hamda amaldagi rasmiy **valyuta kursi** inobatga olinadi.

Shu sababli o'lchovli oltin quymalarining ichki bozordagi narxi oltinning jahon bozorida narxidan marja miqdori hamda valyuta kursi o'zgarishlari ta'siri hisobiga ma'lum darajada farq qiladi.

IV bob. O'lchovli oltin quymalar bo'yicha operatsiyalarning takomillashtirilishi

Mamlakatda qimmatbaho metallar bozori faoliyatini yanada rivojlantirish hamda aholining investitsiya va jamg'arish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida jahon tajribasi va amaliyoti o'rganilib, "Banklar tomonidan qimmatbaho metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom (3698-son, 2025-yil 3-noyabr) ishlab chiqildi.

Mazkur nizomga muvofiq banklar tomonidan qimmatbaho metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirishning yangi mexanizmlari joriy etildi. Xususan, oltinni banklardan sotib olish, qaytarib sotish hamda saqlash bilan bog'liq operatsiyalarni banklarning mobil ilovalari orqali amalga oshirish joriy etildi.

3-rasm. O'lchovli oltin quymalarni elektron ko'rinishda sotib olish mexanizmi



Mazkur tartib asosida banklarga o'lchovli oltin quymalarni Markaziy bankdan buyurtma asosida xarid qilib, ularni mustaqil ravishda mijozlarga sotish hamda aholidan qaytarib sotib olish imkoniyati yaratildi.

Bunda, bank sotish va qaytarib sotib olish narxlarini qimmatbaho metallarning jahon bozorida narxlari hamda o'lchovli oltin quymalarga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda mustaqil ravishda belgilashi va operatsion kun davomida ushbu narxlarni o'zgartirib borishi mumkin.

Shu bilan birga, mijozlar uchun bankda elektron metall hisobvaraqlari (*qimmatbaho metallarning egasizlantirilgan – jismoniy bo'lmagan hisobvaraqlari*) ochish orqali o'lchovli quymalarni elektron ko'rinishda sotib olish va qayta sotish mexanizmi ham joriy etildi (*3-rasm*).

Ushbu mexanizm orqali mijozlar oltinni nafaqat standart o'lchamlarda (*5, 10, 20 gramm va boshqalar*), balki o'z ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib kichik hajmlarda – 0,1 grammdan boshlab ham xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Elektron metall hisobvaraqlari orqali oltinni xarid qilish jismoniy quymalarni saqlash bilan bog'liq qo'shimcha xavflarni kamaytirish, operatsiyalarni yanada qulay amalga oshirish hamda bozor likvidligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur amaliyot doirasida 2025-yilda banklar tomonidan egasizlantirilgan metall hisobvaraqlari orqali umumiy qiymati 311,7 mlrd so'mni tashkil qiluvchi jami 169,74 kg oltin depoziti shakllantirildi.

Bugungi kunda O'zmilliybank va O'zsanoatqurilishbank tijorat banklarida elektron ko'rinishda oltin depozitini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Mobil ilovalar orqali quymalarning joriy sotish va qaytarib sotib olish narxlari hamda sotuv shoxobchalarida mavjud quymalar qoldig'i bo'yicha kundalik ma'lumotlar taqdim etib borilmoqda.

Eslatma!

Ushbu sharh o'lchovli oltin quymalar bozori bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida tayyorlangan bo'lib, undagi ma'lumotlar muayyan aktiv turini sotib olish yoki sotish, jamg'arish hamda investitsiya kiritish bo'yicha tavsiyaviy xarakterga ega emas.